

ZAMONAVIY BOLALAR ADABIYOTDA XUDOYBERDI TO'XTABOYEV ASARLARINING BUGUNGI YOSH AVLOD TARBIYA VA ADABIYOTGA QIZIQSHNI OSHIRISHDA TUTGAN O'RNI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Pedagogika ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Oblaqulova Shaxrizoda

baratovshoxjaxon@gmail.com

Ilmiy rahbar: dotsent

Azimov.A

Annotatsiya: *Bolalar adabiyotida ijod qilish, qalam tebratish murakkabligi bilan ajralib turadi. Shunday bo'lsa-da o'zbek bolalar adabiyotida serqirra ijod namunalarini yaratgan bir qancha adiblar mavjud. Masalan, Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev va boshqalar. Yuqoridagi shoirlarimizdan Xudoyberdi To'xtaboyevning asarlari ko'plab bolajonlar bilan bir qatorda kattalarga ham yod bo'lgan. Shuning uchun Xudoyberdi To'xtaboyev katta-yu kichik bolalarningsevimli adibidir.*

Kalit so'zlar: *ijod, o'smirlar, tarbiya, ruhiy olam, bolalar adabiyoti, go'zallik, serqirra, ma'naviy tarbiya, iste'dod, vujudi, mahorat.*

KIRISH

Xudoyberdi To'xtaboev o'zbek adabiyoti erishgan har bir yangilikdan quvonar, adabiyot jarayonidagi yangi tendensiyalarni qo'llab-quvvatlagan novator adib edi. U Ayniy, Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda, S.Abdula, A.Umariy, S.Ahmad, S.Zunnunova, R.Bobojon, Mirmuhsin, O'.Umarbekov, O.Yoqubov, O'.Hoshimov kabi yozuvchilar safida qanot yozdi. Bu esa X.To'xtaboyevning adabiy harakat aktiv ishtirokchisi bo'lganini to'la tasdiqlaydi. Mazkur maqolada yozuvchining ijodiy yutug'i va ijodkor sifatida adabiyotshunoslikda tutgan o'rni belgilandi, shuningdek, X. To'xtaboyevning ijodi roman, hikoyachilik, satira va yumor to'g'risidagi mulohazalarga boy bo'ldi. Adib bolalar adabiyotida qalam tebratishni, bolalarcha bo'lishni, bolalar dunyosiga o'tishni butun vujudi ila his qilganligini yozuvchining quyidagi tarjimai holidan ko'rishimiz mumkin. "Ruhiiy dunyosi pok bo'lgan, tarbiyaga quloq soladigan, savob va gunohni bilishga intiladigan, ruhi go'zallikka talpinayotgan bolalar dunyosida ishlasam qanday bo'lar ekan deb o'ylay boshladim va qaror ham qabul qildim, bolalar, o'smirlar dunyosiga paqqos o'tib kettim",- deya ta'kidlagan yozuvchi. Darhaqiqat, adib mana necha yillardirki yozuvchilik iste'dodini bolalar va o'smirlarning ma'naviy tarbiyasiga bag'ishlab kelyapti. Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari yumorga boyligi, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos tabiati xususiyatlari ruhiy kechinmalari nihoyatda jonli, qiziqarli va bolalar-bop yo'sinda mahorat bilan tasvirlanishi jihatidan ajralib turadi. Ma'lumot o'rnida shuni aytib o'tish joizki, Xudoyberdi To'xtaboyev o'zbek bolalar adabiyotini jahon miqyosiga olib chiqqan ijodkorlardan biridir. Adibning asarlari bir nechta tillarga tarjima qilingan. Ayniqsa yozuvchining "Sariq devni minib" yumoristik-sarguzasht qissasi bolalar hayotidan olingan. "Sariq devni minib" asari 24 ta tilga tarjima qilingan hamda Italyan

yoʻzuvchisi Janni Rodari tahsiniga sazovor boʻlgan. Adibning eng katta shuhrat qozongan asari "Sariq devni minib" asari hisoblanadi. Bu asarning bolalar uchun ahamiyatli boʻlgan tomoni shundaki, oʻqish, ilm choʻqqilarini egallash va insonning oʻz orzusi ezgu niyatiga erishish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan zamonamizda yashashga qaramay dangasalik yoʻlqovlik qilgan hayotda yengil-yelpi yashashga yoʻl axtargan va adashgan bolalar - Hoshimjonlar kulgi ostiga olinadi. Hoshimjon dehqon oilasidan, shoʻxligi olamni buzadigan bir bola. U hayotdagi koʻp narsalarga mehnatsiz, qiyinchiliklarsiz oson yoʻl bilan erishgisi keladi. Mehnatsiz va ilmsiz ham kishi istagan narsaga erisha olishi, katta obroʻ orttirishi mumkin, deb oʻylaydi. Oʻz fikrida qatʼiy turgan Hoshimjon muddaosini amalga oshirish uchun buvisi aytib bergan ertakdagi sehrli qalpoqchani izlashga tushadi, uzoq izlanishlardan keyin istagan ishini hech qanday mashaqqatsiz bajarishga yordam beradigan sehrli qalpoqchani tashlandiq molxonada oxuridan topib oladi. Endi u oʻzini orzulariga batamom erishadiganday his etadi. "Ortiqcha" fanlarni dars jadvalidan chiqarishni rad etgan direktor, har hil vazifalar berib, mashhur odam boʻla olish, koʻkrak toʻla nishonlar bilan shon-shuhrat, katta obroʻga ega boʻlish mumkinligini koʻrsatib quymoqchi boʻladi; shu maqsadda sehrli qalpoqcha bilan safarga chiqadi. Shunday qilib uning sarguzashtlari boshlandi. Ammo, sehrli qalpoqcha muhoyyo etgan imkoniyatlar har safar kutilmagan koʻngilsiz oqibatlarga olib kelaveradi. Hoshimjonning endi baxti kulay deb turganida ishning pachavasi chiqib qolaveradi. U davlat xoʻjaligida agronom boʻlib ham, shoirlik qilib ham, qurilishda muhandislik qilib ham, qoʻgʻirchoq teatrida artistlik qilib ham koʻradi, mashhur sayohatchi sifatida butun dunyoni kezmoqchi ham boʻladi, lekin hamma yerda ilmning, tajribasining yoʻqligi ishning pachavasini chiqaraveradi. Hoshimjon qayerga bormasin qanday ish qilmasin, pirovardida sharmanda-yu sharmisor boʻladi. Uning agronomik va muhandislik "faoliyati" jinoyatga olib keladi, qamalishiga sal qoladi, shoir boʻlaman deb rasvo boʻladi, "ulugʻ artist" teatridan quviladi. Qissada Hoshimjon oʻz sayohati davomida qanchadan qancha ajoyibotlar guvohi boʻlib, qiziq, kulgili sarguzashtlarni boshidan kechiradi. U oʻqimay, mehnat qilmay, oʻz ustida ishlaymay juda koʻp narsalarga erishmoqchi boʻlib, lekin amalda u hech narsaga erisha olmaydi, chunki unga ilmsizligi pand beradi. Yozuvchi Hoshimjon obrazini butun qirralari bilan ochishga erishgan. Bolalarga xos oʻyinqaroqlik ham, soddalik, begʻuborlik ham, gʻururlilik, toʻgʻrisoʻzlik, shumlik bir oz maqtonchoqlik, hatto oʻrnida yolgʻonni doʻndirib yuboradigan ham, oʻzini boshqalardan ajratib koʻrsatishga intilish odatlari, bolalarga taqlidchilik, dovyurak, epchil va ruhiy tetiklik, xafachilik va tushkinlikdan yiroqlik ham Hoshimjon xarakteriga mos xususiyatlardan. Asarni oʻqigan har bir yosh kitobxon oʻzini Hoshimjonni oʻrniga taqqoslay boshlaydi. Men ishonamanki Hoshimjonni oʻrniga oʻzini qoʻygan kitobxon Hoshimjon bilimli boʻlmaganligi tufayli, sehrli qalpoqchani sehriga ishonib el oldida uyalib qolganini albatta anglab yetadi. Sehrli qalpoqchasiz qoʻlidan hech bir ish kelmasligini biladi. Ularda men "shu asarni oʻqib qanday xulosaga keldim?" degan savol orqali Hoshimjonga oʻxshab yalqov boʻlmaslikni, oʻgʻir mehnatdan qochib hech bir orzuistaklarga erishib boʻlmasligini aytadi. Xulosa qilib aytganda bu asarda orzu-xavasga eltadigan chinakam yoʻl-halol mehnat, yaxshi xulq-odob va qunt bilan oʻqish ekanligi taʼkidlanadi. Xudoyberdi Toʻxtaboyevning "Sariq devni minib" asarining davomi "Sariq devning oʻlimi sarguzasht romani asosida ham Hoshimjon sarguzashtlari yotadi. Roman uch qism (Oʻrtoq

polkovnik", "Sariq devni quvib", "Sariq devni o'limi yoki olam guliston bo'lgani") dan iborat. "Sariq devning o'limi" romanida ham sehrli qalpoqcha yana madadga keladi, ajab-g'aroyib karomatlar ko'rsatadi. Endilikda Hoshimjon hayotida ma'suliyatli davr boshlanadi. Tabiatan ziyarak fahm-farosatli Hoshimjon katta bir operatsiyada qatnashib, uning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta'minlaydi. Sehrli qalpoqcha Hoshimjonga jiddiy masalalarda o'g'ri, muttaham, tekinxo'rlarni fosh etishda yordam beradi. Endilikda Hoshimjon aynan avvalgi o'yinqaroq Hoshimjon emas, balki, to'qqiz yillik maktabni bitirib, ulg'ayib, birmuncha quyilib, esi kirib, oqqorani tanib qolgan yigitcha. Endi u o'z hayoti taqdiri, jamiyatga foyda yetkazadigan odam bo'lib yetishi haqida jiddiy o'ylaydi, biror kasb egallash haqida bosh qotiradi. Boshida sartarosh bo'ladi. "Bilasizku, bir ishga and qilsam, uni oxiriga yetkazmaguncha qo'ymaydigan odatim bor. Jonimni qiynab bo'lsa ham maqsadimga erishaman",-deb shu kasb orqali odamlarga xizmat qilishga bel bog'laydi. Keyin militsiya maktabiga kirib o'qiydi, uni bitirgandan keyin militsionerlikka ishga o'tadi. Kitobdagi barcha voqea-hodisalar, sarguzashtlar Hoshimjonning Ana shu militsionerlik nuqtasidan boshlanadi, barcha gap-so'zlar qahramonning shu kasb-kori bilan bog'liq holda davom etadi. Romanda yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida militsiya polkovnigi Salimjon, uning madadkori Hoshimjon, yomonlik, eskilik ramzi tarzida Odil battol gavdalanadi. Ular o'rtasida tinimsiz shiddatli kurash ketadi. Odil nihoyatda makkor-u Salimjon boshiga juda ko'p og'ir savdolar solgan, uyiga o't qo'ygan, uning yakka-yu yolg'iz farzandining qo'liga to'pponcha tutqazgan, jinoyatga yetaklagan. Asar pirovardida butun umri davomida xalqqa, yaxshi odamlarga zarar yetkazish bilan shug'ullangan Odil battol va uning hamtovoqlari qonuniy mag'lubiyatga uchraydi, haqiqat, adolat, ezgulik g'olib chiqadi, Xudoyberdi To'xtaboyev o'z romanida yulg'ichlarga, qalloblarga qarshi kurashda butun xalq bir kishiday bo'lib birlashsa, bu ishni butunlay o'z qo'liga olsa, Odil battollarga qiron keladi, ulardan nom-nishon ham qolmaydi, degan fikrni o'rtaga tashlaydi. "Sariq devni minib" qissasi, "Sariq devning o'limi" romanining eng yaxshi xususiyati tilning shiradorligi va o'ynoqiligidir. Adib bosh qahramon Hoshimjonning tiliga alohida ahamiyat qaratgan. Bu til nozik qochirimlarga boyligi va jonliligi, shu bilan birga bolalar tiliga mos holda soddaligi bilan ajralib turadi. Hoshimjonning harakteri uning so'zlaridan bilinib turadi. Fantastik-sarguzasht janr bolalar adabiyotining eng qiziqarli janrlaridan biridir. Bunday asarlar bolalarning ongi va psixologiyasiga juda yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Bolalarni o'qishga, ilm olishga hamda jamiyatimizda faol o'quvchilarni tarbiyalashga yordam beradi. "Xudoyberdi To'xtaboyev ijod qila boshlaganidan beri,-deb yozadi A.Rasulov,-zamon, tuzum, mafkura, adabiy-estetik qarash o'zgardi, lekin yozuvchi salkam ellik yillik ijodi davomida qanday roman, qissa yozgan bo'lsa, ularga bo'lgan qiziqish susaymadi, chunki yozuvchi hamisha tirik insonni, o'z "men"i, yo'l-yo'siniga ega odamni tasvirlagan edi. Darhaqiqat, olim to'g'ri ta'kidlaganidek Xudoyberdi To'xtaboyev ijodida o'zgacha bir olam bor. Xudoyberdi To'xtaboyev asarlaridagi bola qalbi, bola tili kitobxonlarni o'ziga tortadi. Albatta, kitoblarni kino tarzida ishlagani ham bolalarni Xudoyberdi To'xtaboyev ijodiga qiziqishni oshirdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarining o'rni o'zbek va jahon adabiyotida beqiyosdir. Ishonamanki, Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarini o'qimagan, kinolarini ko'rmagan inson bo'lmasa kerak. Adibning

asarlarini o‘qigan har bir kitobxon o‘ziga yetarlicha ma’naviy ozuqa oladi desak adashmagan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O.Safarov,R.Barakayev,B.Jamilova "Bolalar adabiyoti"(o‘ qituvchi nashriyoti matbaa ijodiy uyi,Buxoro ,2019)

2.Jumaboyev. M.Bolalar adabiyoti. Darslik.T.,"O‘ qituvchi ",2002 3.Jumaboyev. M.Bolalar adabiyoti. Darslik. T.,"O‘ qituvchi ",2011

4. Ruzikulovna, S. D. (2021). The Importance of Personal Value Approach Methodology in Primary School Literacy Classes. *JournalNX*, 7(11), 78-82.

5.SHABBAZOVA, D. (2023). A PERSONAL VALUE APPROACH MODEL FOR ELEMENTARY LITERACY INSTRUCTION. *World Bulletin of Social Sciences*, 22, 1-4.

6. Zarnigor, B., & Ruzikulovna, S. D. (2019). Views Of The Great Thinkers Of The East About Education And Perfection Of Human. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12). 7. Шаббазова, Д. Р. (2018). ВОСПИТАНИЕ ТРУДОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРИУЧЕНИЕ К ТВОРЧЕСТВУ. *Гуманитарный трактат*, (25), 99-102.

8.Gulnoza Ochildieva, & Muminova Umida Karshievna. (2023). METHODS AND MEANS OF FORMING A POSITIVE ATTITUDE OF STUDENTS TO THE ENVIRONMENT IN THE EXTRACURRICULAR PROCESS. *European Scholar Journal*,4(3),106-108.Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/3302>

9.Hasanova Gulbahor Davlatmamatovna, & Muminova Umida Karshievna. (2023). STUDYING THE SOCIAL, EDUCATIONAL AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF SCIENTIFIC AND POPULAR ARTICLES IN PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. *Open Access Repository*, 4(03), 46–52. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QR64M> 10.2023-03-13 Issue Vol. 1 No. 2 (2023): “TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE”